

TA'LIMNI MOLİYALASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR

Suhrob Chulliyev, *iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori,*
suhrobchulliyev@gmail.com, suhrobchulliev@mail.ru, tel.: 93 149 88 10

Navoiy davlat pedagogika instituti

Mashhurabonu Rayimova

mashhurabonurayimova@gmail.com,

Navoiy davlat pedagogika instituti, Maktab menejmenti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'limni moliyalashtirishda xalqaro tajribalar o'rganilgan. Xususan, turli xorijlik olimlarning ta'limni moliyalashtirishdagi maqolalari rivojlangan mamlakatlar tajribasidan AQSH, Yevropa mamlakatlari, Osiyo mamlakatlari misolida qiyosiy tahlil qilingan, hamda tegishli xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, ta'limni moliyalashtirish, grantlar, davlat sektori, xususiy sektor, maktab, universitet, oliy ta'lim.*

Abstract: *This article examines international experiences in financing education. In particular, the articles of various foreign scientists on the financing of education have been comparatively analyzed from the experience of developed countries using the examples of the USA, European countries, and Asian countries, and relevant conclusions and suggestions have been given.*

Key words: *education, financing of education, grants, public sector, private sector, school, university, higher education.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается международный опыт финансирования образования. В частности, на примере США, стран Европы и Азии на примере США, стран Европы и Азии проведен сравнительный анализ статей различных зарубежных ученых по вопросам финансирования образования, даны соответствующие выводы и предложения.*

Ключевые слова: *образование, финансирование образования, гранты, государственный сектор, частный сектор, школа, университет, высшее образование.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Ta'limni moliyalashtirish – bu siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayoni bo'lib, u orqali davlat daromadlari va boshqa resurslar ta'lim va umrbod ta'lim imkoniyatlarini moliyalashtirish uchun to'planadi va ajratiladi. Ta'limni moliyalashtirish masalalari, uni rivojlantirish va samaradorligini oshirish strategik ahamiyatga ega. Xalqaro tajribalar ta'limni moliyalashtirishda samarali modellar va strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi. Ushbu tadqiqotda turli mamlakatlarning ta'limni moliyalashtirish bo'yicha yondashuvlari tahlil qilinadi va o'rganilgan natijalar asosida takliflar beriladi.

ASOSIY QISM

Amerika Qo'shma Shtatlarining tajribasi

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'limni moliyalashtirishning asosiy manbalari davlat

va xususiy sektor hisoblanadi. Federal hukumat, shtatlar va mahalliy hokimiyatlar ta'limni moliyalashtirishda ishtirok etadi. Biroq, ta'limni moliyalashtirishning asosiy qismi mahalliy darajada, ya'ni mahalliy soliqlar hisobidan amalga oshiriladi. Bu tizim moliyalashtirishda tengsizlikka olib kelishi mumkin, chunki boyroq hududlarda ta'lim uchun ko'proq mablag' ajratiladi, kam ta'minlangan hududlarda esa mablag' yetishmasligi kuzatiladi. Federal hukumat asosan ijtimoiy yordam dasturlari va grantlar orqali moliyaviy yordam ko'rsatadi, shtatlar va mahalliy hukumatlar esa asosiy moliyalashtiruvchilar hisoblanadi. Ko'plab xususiy kompaniyalar va nodavlat tashkilotlar ham grantlar, stipendiyalar va boshqa moliyaviy yordam shakllarini taklif etadi. AQSh ta'lim muassasalari barcha asosiy reytinglarda yetakchi o'rinlarni egallaydi. [1] Xususan, 34 ta AQSh universiteti dunyodagi eng yaxshi 150 ta universitet qatoriga kirdi. AQShda o'qish uchun 50 foiz yoki undan ortiq chegirmalar mavjud. Umumiy hisobda 4500 dan ziyod o'quv yurtlari mavjud. 99 foiz aholisi oliy ma'lumotli. 2020-yilda davlat maktablarida qariyb 48 million o'quvchining ta'lim olishiga qariyb 755,3 milliard dollar sarflandi, bu 2019 yilga nisbatan qariyb 4,7 foizga oshganini ko'rsatdi. Qo'shma Shtatlarda 2018-2019 yil uchun davlat boshlang'ich va o'rta maktablar uchun umumiy xarajatlar 800 milliard dollarni tashkil etdi. AQSH ta'lim departamenti 2021-yilda 260,45 milliard dollar sarfladi. [2]

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining tajribasi

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ta'limni moliyalashtirishda davlatning roli juda katta hisoblanadi. Ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida ta'lim bepul yoki davlat tomonidan subsidiyalanadi. Masalan, Germaniyada oliy ta'lim bepul va talabalarga ko'plab ijtimoiy yordamlar ko'rsatiladi. Bu esa ta'limning keng omma uchun ochiqligini ta'minlab, yuqori sifatli ta'limga keng imkoniyat yaratadi. Germaniyada ta'lim tizimi federal va mahalliy darajasida moliyalashtiriladi. Federal hukumat asosan yirik loyihalar va ilmiy tadqiqotlar uchun mablag' ajratadi, mahalliy hukumatlari esa maktab va universitetlar uchun asosiy moliyalashtiruvchilar hisoblanadi. Germaniyada oliy ta'lim asosan bepul, mablag'lar markaziy hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Mamlakatdagi barcha maktablar bir xil darajada moliyalashtiriladi, bu esa ta'lim sifatida tenglikni ta'minlashga yordam beradi. Umuman olganda, Germaniya o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha OECDning eng yaxshi ko'rsatkichlariga ega mamlakatlardan biri bo'lib, PISA baholash testida o'quvchilarning o'rtacha balli 515 bo'lib, OECD o'rtacha 497 ballidan ancha yuqori hisoblanadi. Germaniya yalpi ichki mahsulotining 1,3 foizini oliy ta'lim muassasalariga sarflaydi, OECD mamlakatlarida esa o'rtacha 1,5 foiz. Mutlaq ma'noda oliy o'quv yurtining har bir talabasi uchun sarflangan xarajatlar OECD mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 17 559 AQSH dollariga nisbatan 19 608 AQSh dollari bilan OECD o'rtachasidan biroz yuqoriroq hisoblanadi. Aksariyat ta'lim muassasalari davlat organlari tomonidan yuritiladi. Ular o'z mablag'larining katta qismini davlat byudjetidan oladilar, jumladan, 2021-yilda ta'lim, fan va tadqiqot uchun taxminan 351 milliard yevro sarflashgan. [3]

Osiyo mamlakatlarining tajribasi

Osiyo mamlakatlari orasida Yaponiya va Janubiy Koreya ta'limni moliyalashtirishda muvaffaqiyatli tajribaga ega. Yaponiya ta'lim tizimi davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida moliyalashtiriladi. Davlat va xususiy sektorning o'zaro hamkorligi: Yaponiyada

davlat va xususiy sektor birgalikda ta'limni moliyalashtiradi. Universitetlar va maktablar davlat grantlari, xususiy investitsiyalar va studentlar to'lovlari orqali moliyalashtiriladi. Maktab va universitetlar uchun subsidiyalar: Hukumat talabalar uchun turli subsidiyalar va grantlar ajratadi, bu esa moliyaviy yukni kamaytiradi. Xususiy maktablar va universitetlar ko'plab talabalarni qabul qiladi, shu bilan birga davlat ham ta'limni rivojlantirish uchun katta miqdorda mablag' ajratadi. Yaponiyada ta'lim sifati yuqori va butun dunyoda tan olingan. Janubiy Koreyada esa davlat ta'lim tizimini moliyalashtirishda katta rol o'ynaydi va ta'lim sifatini oshirish uchun doimiy ravishda islohotlar o'tkazadi. 2023-yilda Janubiy Koreya mahalliy hukumatlarining ta'lim uchun rejalashtirilgan byudjeti taxminan 96,3 trillion Janubiy Koreya vonini tashkil etdi. Yana bir davlatlardan biri - Singapur. Singapurning ta'lim tizimi dunyo miqyosida eng muvaffaqiyatli va innovatsion tizimlardan biri sifatida tan olingan. Ushbu muvaffaqiyatning asosi Singapur hukumatining ta'lim sohasiga kiritgan katta investitsiyalari va moliyaviy yutuqlaridadir. Ta'lim tizimining moliyalashtirilishi o'quvchilarni kelajak uchun tayyorlash, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va milliy raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Singapur hukumatining ta'lim sohasiga kiritgan investitsiyalari mamlakatning yillik byudjetining katta qismini tashkil etadi. 2021-yilda Singapur ta'limga umumiy byudjetining 20% dan ortig'ini ajratdi. Bu mablag'lar maktablar infratuzilmasini yaxshilash, yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish va o'qituvchilarni yuqori malakali qilishga yo'naltirilgan. [4,5]

Taqqoslash va tahlil

Ta'lim sohasi taraqqiyoti ko'pincha moliyalashtirish ko'lami va olingan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq. Shuning uchun turli mamlakatlarda ta'lim sohasidagi islohotlarni moliyalashtirish ko'lami bir-biridan tubdan farq qiladi. Ba'zi mamlakatlar kam mablag' talab qiladigan islohotlarni tanlasalar, boshqa mamlakatlar katta moliyaviy resurslarni talab qiladigan yirik islohotlarni amalga oshiradilar. Har bir ta'limni moliyalashtirish modeli o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Amerika modeli moliyaviy resurslarni taqsimlashda katta notengliklarga olib kelishi mumkin bo'lsa, Yevropa modeli ijtimoiy tenglikni ta'minlashda samarali. Osiyo modellari esa davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan, bu esa resurslarni optimal tarzda taqsimlash imkonini beradi.

Yevropa davlatlarining ta'lim tizimini moliyalashtirishdagi yutuqlari butun dunyo bo'ylab yuqori baholanadi. Ushbu yutuqlar ta'lim tizimining sifatini oshirish va keng ommaga ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ko'plab Yevropa davlatlarida oliy ta'lim bepul yoki juda arzon narxda taqdim etiladi. Germaniya, Norvegiya, Finlandiya va Daniya kabi mamlakatlar o'z universitetlarida talabalarni bepul ta'lim bilan ta'minlash orqali ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yondashuv talabalar uchun moliyaviy to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi va har qanday ijtimoiy kelib chiqishdan qat'i nazar, oliy ta'lim olish imkoniyatini beradi. Ikkinchi yutuq, ta'limga yuksak davlat sarmoyasi bilan bog'liq. Ko'plab Yevropa mamlakatlari davlat byudjetining katta qismini ta'limga ajratadi. Skandinaviya davlatlari, masalan, ta'lim tizimiga katta mablag' sarflab, maktablar va universitetlarning yuqori sifatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Osiyo davlatlarining ta'limni moliyalashtirishdagi yutuqlari so'nggi o'n yilliklarda

sezilarli darajada ortib bordi. Ushbu yutuqlar ta'lim tizimining sifatini oshirish va keng ommaga ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashda katta rol o'ynadi. Osiyo davlatlarining ta'limni moliyalashtirishdagi yutuqlari Yevropa davlatlarinikidan keyin rivojlangan bo'lsada ta'lim sifati kam emas. Xususan "Osiyo yo'lbarlari" safiga kiruvchi davlatlar, Hindiston, Xitoy kabi davlatlarda ta'limga e'tibor juda katta va shu ta'limning orqasidan mamlakat iqtisodiyotini tiklab oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Osiyo davlatlarining ta'limni moliyalashtirishdagi yutuqlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ta'lim tizimini moliyalashtirishdagi muvaffaqiyatlar jamiyatning barqaror rivojlanishiga, teng imkoniyatlarni ta'minlashga va kelajak avlodning sifatli ta'lim olishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, Osiyo davlatlarining tajribasi boshqa mamlakatlar uchun ham ibratli model bo'lib xizmat qiladi. Osiyo davlatlarining ta'limni moliyalashtirishdagi yutuqlari ularning global iqtisodiy va madaniy maydondagi o'rnini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ta'limga kiritilgan sarmoyalar kelajak avlodning malakali va bilimli bo'lishiga hissa qo'shadi va bu davlatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimining moliyalashtirishdagi yutuqlari o'zining xilma-xilligi va ko'p qirrali yondashuvi bilan ajralib turadi. Mahalliy soliqlar orqali to'plangan mablag'lar maktablarning yaxshiroq jihozlanishi, yangi texnologiyalar bilan ta'minlanishi va o'qituvchilarni rag'batlantirish uchun sarflanadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning yaxshi natijalarga erishishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xususi sektor bilan hamkorlik qilish ham Amerikaning ta'limni moliyalashtirishdagi yutuqlaridan biridir. Ko'plab korxonalar va notijorat tashkilotlar ta'lim muassasalariga grantlar, stipendiyalar va texnologik yordam beradi. Masalan, Google, Microsoft, Apple va boshqa yirik kompaniyalar universitetlar bilan hamkorlikda innovatsion loyihalarni amalga oshirmoqda, bu esa talabalar uchun zamonaviy ko'nikmalarni egallash imkoniyatini yaratadi. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi talaba kreditlari va grantlar tizimi ham ta'lim tizimini moliyalashtirishdagi muhim yutuqlardan biridir. Turli xil talaba kreditlari va grantlar tizimi orqali ko'plab talabalar oliy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu tizim ta'lim olishni kengroq qatlamlar uchun qulayroq va arzonroq qilmoqda. Shu bilan birga, talabalar kelajakda muvaffaqiyatli kasb egasi bo'lish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa

Ta'limni moliyalashtirishda xalqaro tajribalar turli modellarga asoslangan bo'lib, har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga mos ravishda rivojlanadi. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ushbu tajribalardan foydalanish va samarali moliyalashtirish strategiyalarini ishlab chiqish muhimdir. Shu asosda davlat va xususi sektorning o'zaro hamkorligi, teng va adolatli moliyalashtirish tizimini joriy qilish taklif etiladi. Davlat va xususi sektor hamkorligi, ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatlar hamda ta'lim tizimining barqaror moliyalashtirilishi O'zbekiston ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown, C. (2020). Education Financing in the United States: Current Models and

Future Directions. Journal of Education Policy.

2. Chan R.Y., Brown G.T.L. & Ludlow L.H. (2014). What is the purpose of higher education?: A comparison of institutional and student Perspectives on the goals and purposes of completing a bachelor's degree in the 21st century. The American Education Research Association (AERA) Annual Conference. Philadelphia, The United State of America.

3. Schmidt, V. (2019). European Education Systems: Funding and Policy Innovations. Education Review.

4. Kim, S. (2018). Education Reform and Financing in South Korea. Asian Education Journal.

5. https://www.academia.edu/1228730/Financing_Higher_Education_in_Developing_Countries , Access Date: 05.06.2024 . The financing of higher education.